

21-MAVZU. AMALIY MASHG'ULOT. UGLEVODLARGA OID TAJRIBALAR

O'rjaniladigan tushunchalar:

- glyukoza va saxarozaga oid tajribalar;
- kraxmal va sellyulozaga oid tajribalar.

1-tajriba. Uzum sharbatidagi glyukoza miqdorini aniqlash

Zarur jihoz va reaktivlar: probirkalar uchun shtativ, probirkalar, spirit lampa yoki quruq yoqilg'i, probirka qisqich, shtativ, stakan, uzum sharbati, mis (II) sulfat eritmasi, Natriy ishqori, mis (II) gidroksid.

Xavfsizlik qoidalari. Ishqoriy eritmalar bilan ishlash qoidaliga rioya qiling.



Ishning borishi

1. Ko'p meva va rezavorlar tarkibida glyukoza mavjud. Glyukoza mavjudligini mis (II) gidroksid yordamida aniqlash mumkin. Uzumdan sharbatni siqib oling. Sharbatga bir necha tomchi mis (II) sulfat eritmasi va ishqor eritmasidan quying.

2. Eritmani qizdiramiz. Eritmaning rangi o'zgara boshlaydi. Eritma qaynatilganda Cu₂O ning sariq cho'kmasi hosil bo'lib, asta-sekin CuO ning qizil cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu uzum sharbatida glyukoza borligini isbotlaydi.



2-tajriba. Saxarozada gidroksil guruhlar mavjudligini isbotlovchi dalillar

Zarur jihoz va reaktivlar: probirkalar uchun shtativ, probirkalar, saxaroza, mis (II) sulfat eritmasi, Na ishqori.

Xavfsizlik qoidalari. Ishqoriy eritmalar bilan ishlash qoidaliga rioya qiling.



Ishning borishi

1. Saxaroza molekulasiда gidroksil guruhlar mavjudligini isbotlaylik. Saxaroza eritmasiga bir necha tomchi mis (II) sulfat eritmasi va ishqor eritmasidan quying. Mis gidroksidning cho'kmasi hosil bo'lmaydi. Eritma yorqin ko'k rangga aylanadi. Bunda saxaroza mis (II) gidroksidni eritadi va o'zini ko'p atomli spirit kabi tutadi. Reaksiya mahsuloti mis (II) saxarati hisoblanadi.

2. Kuzatilgan o'zgarishlarga oid reaksiya tenglamalarni yozing va xulosa qiling.

3-tajriba. Saxarozaning kislotali gidrolizi

Zarur jihoz va reaktivlar: probirkalar uchun shtativ, probirkalar, spirit lampa yoki quruq yoqilg'i, probirka, qisqich, shtativ, stakan, saxaroza va sulfat kislota eritmalari, mis (II) sulfat eritmasi, Na ishqori.




Xavfsizlik qoidalari. Kislota eritmalari bilan ishlash qoidaliga rioya qiling.

Ishning borishi

1. Kislotalar ishtiroyida disaxaridlar gidrolizlanadi. Saxaroza gidrolizidan glyukoza va fruktoza hosil bo'ladi. Keling, buni tajribada tekshirib ko'ramiz.

Saxaroza va sulfat kislota eritmalari aralashmasini qaynatib oling. Bir necha minutdan so'ng, olingen eritmada glyukoza mavjudligini tekshiring.



2. Probirkaga ishqor va bir necha tomchi mis (II) sulfat eritmasidan quying. Mis (II) gidroksidning cho'kmasi hosil bo'lmaydi. Eritma yorqin ko'k rangga aylanadi.
3. Eritma qizdiriladi. Mis (I) oksidining qizil cho'kmasi hosil bo'ladi.
4. Biz tajriba orqali nimani isbotlaganimiz haqida xulosa qiling.

4-tajriba. Kraxmalning kislotali gidrolizi

Zarur jihoz va reaktivlar: probirkalar uchun shtativ, probirkalar, spirit lampa yoki quruq yoqilg'i, probirka qisqich, shtativ, stakan, olovga bardoshli plitka, kraxmal pastasi, sulfat kislota eritmasi, yod eritmasi, mis (II) sulfat eritmasi.

Xavfsizlik qoidalari. Kislota eritmalari bilan ishlash qoidalariга rioya qiling.

Ishning borishi

Kislotalar ishtirokida kraxmal gidrolizlanadi. Kraxmalning gidrolizi glyukoza hosil qiladi. Buni eksperimental tarzda tekshirib ko'ramiz.

1. Kraxmal pastasi va sulfat kislota aralashmasini qaynatib oling.
2. Gidroliz to'liq borganini yod qo'shib tekshiramiz. Gidroliz eritmasi yod bilan ko'k rangga kirguncha amalga oshiriladi.
3. Olingen eritmada glyukoza mavjudligini tekshiring. Probirkaga ishqor va bir necha tomchi mis (II) sulfat eritmasidan quying. Mis gidroksidning cho'kmasi hosil bo'lmaydi. Eritma yorqin ko'k rangga aylanadi.
4. Endi eritmani qizdiramiz. Mis (I) oksidining qizil cho'kmasi hosil bo'ladi.
5. Zarur reaksiya tenglamalarini yozing va xulosa qiling.

5-tajriba. Sellyulozaning mis (II) gidroksidning ammiakli eritmasida erishi

Zarur jihoz va reaktivlar: probirka yoki stakan, shisha tayoqcha, paxta momig'i, konsentrangan mis (II) gidroksidning ammiakli eritmasi.

Xavfsizlik qoidalari. Konsentrangan ammiak eritmasi bilan ishlash qoidalariга rioya qiling.

Ishning borishi. Sellyuloza suvda va ko'pchilik erituvchilarda erimaydi. Biroq mis (II) gidroksidning ammiakli eritmasida yaxshi eriydi.

- 
1. Buni namoyish qilaylik. Paxta momig'inining kichik qismlarini konsentrangan mis (II) gidroksidning ammiakli eritmasiga tushiramiz. Paxta momig'i bu eritmada yaxshi eriydi.
 2. Mis (II) gidroksidning ammiakli eritmasida sellyulozaning qalin yopishqoq eritmasi chiqadi. Bunday sellyuloza eritmasi sanoatda mis ammoniyli ipak ishlab chiqarish uchun ishlataladi.
 3. Yuqorida barcha tajribalardan hosil bo'lgan xulosalaringizni umumlashtiring.

Topshiriqlar

Glyukoza nafaqat uzumda (garchi "uzum shakari" deb atalgan bo'lsa-da), balki ko'plab sabzavotlar va mevalarda mavjud. O'qituvchingiz bilan kimyo to'garagida olma, nok, sabzi yoki bodring sharbatli bilan tajribani takrorlang.